

INGLIZ TOPISHMOQLARIDA FONETIK STILISTIK VOSITALAR

Safayeva Ma'mura Oqil qizi

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti

Tarjima nazariyasi va qiyosiy tilshunoslik kafedrası o'qituvchisi

mamuraakilovna@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21918825>

Kalit so'zlar: ingliz topishmoqlari, stilistika, fonetik stilistik vositalar, tovushga taqlid, qofiya, ritm, alliteratsiya, lingvomadaniyatshunoslik.

Annotatsiya: Ushbu maqolada I.R. Galperin tasnifi asosida ingliz xalq topishmoqlarida qo'llaniladigan fonetik stilistik vositalar tadqiq etilgan. Maqolada tovushga taqlid (bevosita va bilvosita), qofiya (to'liq va to'liq bo'lmagan), ritm hamda alliteratsiya kabi vositalarning topishmoqlar strukturaviy va semantik tashkil etilishidagi o'rni tahlil qilinadi. Tahlillar ingliz topishmoqlarida fonetik obrazlilik, parallel sintaktik tuzilmalar va ritmik naqshlar mantiqiy yechimni topishga yo'naltiruvchi vosita sifatida xizmat qilishini hamda janrning lingvomadaniy xususiyatlarini aks ettirishini asoslaydi.

Stilistik vositalar bu shunday maxsus lingvistik usullarki, til birliklarining oddiy ko'rinishidan chetlashib, nutqqa obrazlilik, ta'sirchanlik, emotsionallik va ekspressivlik qo'shadi. Ular turli darajada – tovush, so'z va matnda namoyon bo'ladi va asosan badiiy adabiyotda gavdalanadi. Ingliz olimlaridan I.R.Galperin, G.N.Lich, M.Short; rus olimlaridan V.V.Vinogradov, I.V.Arnold; o'zbek tilshunoslaridan A.Madvaliyev, A.Hojiyevlar stilistika doirasida tadqiqotlar olib borganlar hamda o'zlarining ilmiy asarlarida ushbu tushunchani keng yoritganlar.

D.U.Ashurova va M.R.Galieva hammuallifligida yozilgan "Stylistics of literary texts" kitobida stilistik vositalar quyidagicha tasnif qilingan: leksik, fonetik, sintaktik, so'z yasash hamda frazeologik stilistik vositalar. I.R.Galperin esa "Stylistics" nomli darsligida badiiy uslub vositalari haqida alohida to'xtalib, ularni 3 ta asosiy bo'limga ajratadi: fonetik, leksik va sintaktik. Ta'kidlab o'tish joiz, bir qator tilshunoslar stilistika bo'yicha o'z bilimlari doirasida turli yondashivlarni taklif etganlar. O'z navbatida biz ham tadqiqotni olib borishda I.R.Galperinning yondashuvini asos qilib olishni ma'qul deb topdik va stilistik vositalarni ushbu klassifikatsiyaga asoslangan holda tahlillarni amalga oshirdik.

Fonetik stilistika tilshunoslikning badiiy nutqdagi tovush vositalarining estetik, emotsional va ifodaviy rolini o'rganuvchi yo'nalishi hisoblanib, matndagi fonetik elementlarni tahlil qiladi. Chunki stilistik yondashuv gapning tuzilishi va ma'nosi bilan chegaralanib qolmasdan, fonetik effektga ham ega bo'lishi talab etiladi. Ayniqsa she'riyatda tovushlar joylashuvi alohida olinganda emas, zanjir hosil qilganda umumiy ta'sirga ega bo'lishini o'quvchiga ma'lum estetik zavq bag'ishlashida ko'rishimiz mumkin. Demak, fonetik stilistika nutq yoki matndagi tovushlarni akustik (eshitiladigan) va artikulyatsion (talaffuz) xususiyatlari nuqtayi nazaridan o'rganadigan yo'nalishi deyishimiz mumkin. Ushbu stilistik vositalar topishmoqlarda qay holatda aks etishini ko'rib chiqamiz.

Tovushga taqlid (onomatopoeia) – tabiatda hosil bo'ladigan tovushlarga, odamlar, hayvonlar, mexanizm yoki predmetlar chiqaradigan tovushlarga taqlid qilish orqali yasalgan so'zlar hisoblanib, bevosita (direct) va bilvosita (indirect) turlari mavjud. Bevosita tovushga taqlid atrofimizdagi tabiiy tovushlarni taqlid qiluvchi so'zlarda namoyon bo'ladi. Masalan, *ding dong, taq-taq, chip-chip*. Bilvosita tovushga taqlid aynan tovushga taqlid qilmay, uning ma'lum

bir xususiyatini ifodalovchi stilistik vosita bo'lib, tovushning assotsiatsiyasi yoki uning tuyg'usini uyg'otadi. Bu kabi so'zlar, ayniqsa, badiiy asarlarda muhit, shaxslar holatini ifodalash uchun ishlatiladi. Masalan, *barglarning shitirlashi*. Bunda tovush hosil qilayotgan manba tilga olinishi kerak (barglar). Shunindek biz kuzatishlarimizdan kelib chiqib ayta olamizki, bilvosita onomatopoeia ko'p hollarda mustaqil so'z turkumiga aylangan holda uchraydi (taq-taq emas, *taqillash* yoki shivir-shivir emas, *shivirladi* kabi). Mazkur fonetik stilistikani ingliz topishmoqlari doirasida ko'rib chiqamiz:

1-jadval. Ingliz topishmoqlarda tovushga taqlid so'zlarning stilistik tasnifi

Nomi	Misol
Bevosita	<i>I can <u>ding-dong</u>, but I'm not a bell.</i> <i>I tell you someone is at the door.</i> <i>Who am I? (A doorbell)</i>
Bilvosita	<i>What do you call a cheerful cat's <u>meow</u>. (Purrific)</i>

Birinchi topishmoqda qo'llangan ding-dong birikmasi eshik qo'ng'irog'ining real tovushini bevosita aks ettiradi. Mazkur usul tinglovchida eshitish tasavvurini uyg'otadi, topishmoq javobi sari yo'naltiruvchi fonetik ishora vazifasini bajaradi va predmet o'rtasidagi assotsiativ bog'liqlik kuchayadi. Ikkinchi misolda mushukning miyovlashiga ishora qiluvchi "purr" elementi so'z o'yini asosida qo'llanib, tovushni bilvosita tarzda anglatadi (cat's meow-mushukning miyovlashi). Unda hazil va obrazlilik bilan uyg'unlashib, topishmoqning ekspressivligini hamda estetik ta'sirchanligini oshirgan.

Qofiya (rhyme) adabiyotshunoslikda keng tarqalgan badiiy uslublardan biri bo'lib, asosan nazmda uchraydi. Satr oxiridagi bir xil yoki o'xshash tovushlarning takrorlanishi qofiya hisoblanadi. Qofiyalar tovushlarning nisbiyligiga qarab to'liq va to'liq bo'lmagan qofiyalar bo'lishi mumkin. To'liq qofiya – so'zning urg'u tushgan unli hamda undan keyingi barcha tovushlarning to'liq bir xil bo'lishi, ammo urg'udan avvalgi tovushlarning har xilligidir. Masalan, "kelar" – "qolar" ("a" va "lar" tovushlari bir xil, lekin "k" "l" tovushlari farqli), "love" – "dove" (/ʌ/ unlisi va /v/ tovushlari bir xil, ammo /l/ va /d/ farqli). To'liqmas qofiyada esa tovushlar qisman o'xshash bo'ladi, bir xil bo'lmaydi. Masalan, "yel" – "gul", "room" – "storm". Mazkur stilistik vositaniv ingliz topishmoqlarida ham uchratish mumkin.

2-jadval. Ingliz topishmoqlarda qofiyaning qo'llanilishi

Nomi	Misol
To'liq qofiya	<i>I help you learn, I help you <u>grow</u>,</i> <i>I share new things you need to <u>know</u>.</i> <i>With books and lessons, day by <u>day</u>.</i> <i>Who am I? What do you <u>say</u>? (Teacher).</i>
To'liq bo'lmagan qofiya	<i>Thirty men and ladies <u>two</u>,</i> <i>gathered for a festive <u>do</u>;</i> <i>Dressed quite formal, black and <u>white</u>;</i> <i>soon movement turned to nasty <u>fight</u>. (Chess).</i>

Birinchi topishmoqdagi "grow-know" hamda "day-say" qofiyalari misralar o'rtasida ritmik uyg'unlik hosil qilgan. Tinglovchining diqqati savolning mazmuniga jalb etish, javobni topishga yo'naltirish maqsadida, qofiyadosh so'zlar yordamida topishmoqning ohangdorligi kuchaytirilgan, fikr izchil va ravon ifodalangan. Bundan tashqari, qofiya matnni esda saqlashni

osonlashtirib, topishmoqning estetik ta'sirchanligini oshiradi. To'liq bo'lmagan qofiyada "two-do" hamda "white-fight" birliklari orqali misralarni fonetik jihatdan bog'lab, matnga tabiiy ritm va ohang beradi. Ayniqsa, voqeaviy tasvir bilan uyg'unlashgan qofiya topishmoqning obrazlilikini kuchaytirib, tinglovchining qiziqishini saqlab turishga xizmat qiladi.

Ritm (rhythm) inson nutqi va adabiyotshunoslik san'atida ifodaning tartibi va ohangni ko'rsatuvchi uslubdir. U nafaqat she'rda, balki nasrdagi elementlarda (garchi kamroq sezilsada) ham namoyon bo'lishi mumkin. Jumalarning qisqa va takrorlanuvchi bo'lishi, ularning strukturaviy o'xshashligi, misrada bo'g'inlar sonining bir xil bo'lishligi ritmni hosil qiladi va drammatik effektini kuchaytiradi, e'tiborni jalb qiladi. "Ritm – ideal metrik qonun bilan berilgan til materialining tabiiy fonetik xususiyatlari o'rtasidagi o'zaro ta'sir natijasida yuzaga keladigan urg'ularning real almashinuvidir". Ya'ni uning tabiiy fonetik stilistik vosita ekanligini, ritmni anglash uchun misradan aynan biror element kutmasdan, aynan shu yaxlit misraning o'ziga e'tibor qaratishlikni tushuntiradi.

I.R. Galperin esa "she'r mustaqil san'at shakli sifatida paydo bo'lganida, u musiqadan butunlay ajralmagan bo'lar edi; she'r qo'shiqdan kelib chiqqan, lekin musiqiy element yo'qolmagan; u yangi shaklda – ritm sifatida mavjud" – deya ta'kidlaydi. Musiqiy elementlar, ya'ni urg'u, bo'g'in, ritmik naqshlar matnda va og'zaki ijroda ritm sifatida mavjuddir. Biroq, ritm faqatgina jumalarning strukturaviy o'ziga xosligi, takrorlanishi bilan cheklanmaydi, unga boshqa elementlar ham hissa qo'shadi. Bu ba'zan nutqda hissiyot bilan bevosita aloqador bo'ladi. Masalan, dramaturgik his-tuyg'ular muntazam ritmni talab qiladi.

Ingliz topishmoqlarida ritm asosan qisqa va parallel sintaktik qurilish, urg'ularning takrorlanishi, savol-javob intonatsiyasi orqali yuzaga chiqadi. Masalan

"The more you take, the more you leave behind" (Footsteps)

Bu topishmoqda parallel konstruktsiya ritmik simmetriya yaratadi. Ingliz topishmoqlarida ritm o'zbek xalq topishmoqlaridagidek bo'g'in va qofiyaga asoslangan poetik ritm shaklida emas, sintaktik parallelizm va intonatsion takrorlar orqali yuzaga chiqadi. Bunday sintaktik va ritmik qurilish ingliz topishmoqlariga ixchamlik va aniqlik beradi, ularning mantiqiy yechimga yo'naltiruvchi xususiyatini yanada kuchaytiradi .

Alliteratsiya asosan she'riyatda qo'llaniladigan, bir xil yoki o'xshash tovushlarning so'zlar boshida takrorlanishi natijasida hosil bo'ladigan fonetik stilistik vositadir. U matnning ohangdorligini, musiqiyligini va emotsional ta'sir kuchini oshirishga xizmat qiladi. Aytib o'tish lozim, ushbu vosita topishmoq janrida kam uchraydi.

Silent and stealthy I shadow your steps. (Shadow)

"Silent", "stealthy", "shadow" va "steps" so'zlarida "s" tovushining takrorlanishi alliteratsiyani yuzaga keltirgan. Ushbu tovush takrori misraga ohangdorlik va musiqiylilik bag'ishlaydi hamda "s" tovushi shivirlashga o'xshash akustik ta'sir hosil qilib, soyaga xos sokin va yashirin harakatni ifodalaydi. Natijada topishmoqning poetik ta'sirchanligi kuchayib, tinglovchi "shadow" javobiga mantiqan yo'naltiriladi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Ashurova D.U., Galieva M.R. stylistics of literary texts. Toshkent, Turon-iqbol, 2016.
2. Galperin I.R. Stylistics. – Moscow, Higher School, 1977.;
3. Grin T. A. The Language of Riddles. New Perspectives / T. A. Green, W. J. Pepicello. – Columbus: Ohio State University Press, 1984;

4. Hecimovich G.A. Waking the Reader: Riddles in Nineteenth-Century British Literature: PhD diss. – Nashville, Vanderbilt University, 1997.;
5. Pepichello W.J., Green T.A. The Language of Riddles: New Perspectives. – USA: Ohio State University Press, 1984.;
6. Sotto C.D. The Comprehension of Riddles by School Age Children with Normal Language Abilities and Learning Disabilities: PhD diss. – Cincinnati, 1994.;
7. Taylor A. Riddles // Folklore and Folklife: An Introduction / Ed. by Richard M. Dorson. – Chicago, University of Chicago Press, 1972.;
8. Abdurahimov M.(tuz.) O'zbek xalq topishmoqlari. – Toshkent, G'afur G'ulom, 2022.;
9. Yusuf N. Bolajonlar uchun quvnoq topishmoqlar. – Toshkent, Adabiyot uchqunlari, 2017.